

O'ZBEKISTONDA FESTIVAL MADANIYATINING RIVOJLANISHI: MILLIY AN'ANALAR VA ZAMONAVIY MADANIY TAJRIBALAR

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.002>

Ilhom Yakubovich Sodiqov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida o'tkaziladigan yirik festivallar madaniyatshunoslik, etnografiya va ijtimoiy madaniyat sohalari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Zamonaviy madaniy yo'nalishlar va an'anaviy bayramlarning o'zaro uyg'unlashuvi, festivallarning madaniy turizm va milliy merosni saqlashdagi o'rni yoritilgan. Maqolaga Toshkent, Xiva, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vohasi va Qoraqalpog'istongacha bo'lgan yirik festivallar misolida taxlil amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: festival madaniyati, madaniy meros, etnofolklor, san'at festivallari, turizm, milliy anana, teatrlashtirilga tomosho, folklor, baxshichilik san'ati

DEVELOPMENT OF FESTIVAL CULTURE IN UZBEKISTAN: NATIONAL TRADITIONS AND MODERN CULTURAL EXPERIENCES

Ilkhom Yakubovich Sodiqov

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article analyzes the major festivals held on the territory of Uzbekistan from the point of view of the fields of Cultural Studies, ethnography and social culture. The combination of modern cultural directions and traditional holidays, the role of festivals in cultural tourism and the preservation of national heritage are highlighted. The article was presented on the example of major festivals in Tashkent, Khiva, Samarkand, Bukhara, Fergana Oasis and Karakalpakstan.

Keywords: festival culture, cultural heritage, ethno-folklore, art festivals, tourism, national tradition, theatrical spectacle, folklore, art of giving.

So'nggi yillarda O'zbekistonda madaniy festivallar soni va ularning xalqaro nufuzi ortib bormoqda. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-madaniy faolligi, turizm industriyasining rivojlanishi, milliy qadriyatlarni saqlash va qayta tiklash jarayonlari bilan bevosita bog'liq.

Madaniyatshunos olimlarning fikriga ko'ra, festivallar jamiyatning "madaniy kapitalini qayta ishlab chiqarishning muhim mexanizmi" sifatida namoyon bo'ladi[1].

O'zbekistonda o'tkaziladigan festivallar janriy jihatdan turfa xil: musiqa, kino, etnografiya, gastronomiya, hunarmandchilik, milliy o'yinlar, zamonaviy san'at va ekologik taqdimotlarga asoslangan. Ushbu maqolada festivallar hududiy kesimda o'rganiladi.

Toshkent - O'zbekistonning innovasion madaniyat markazi bo'lib, zamonaviy san'at va ijodiy industriyalarni rivojlantiruvchi asosiy maydon hisoblanadi. Shuning uchun:

-MOCFEST - zamonaviy musiqa, street-art, moda va gastronomiyani birlashtiruvchi kompleks festival aynan poytaxtda o'tkazildi. Ushbu festivall global yoshlar madaniyatini mahalliy madaniy muhitga integrasiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. [2].

-Toshkent xalqaro kinofestival (TXKF) mintaqadagi eng nufuzli kino tadbirlaridan biri bo'lib, xalqaro kinoijodkorlar ishtirokini ta'minlaydi va milliy kinematografiya rivojiga turtki beradi. Festival doirasida dunyoning nufuzli kinokompaniya vakillari xamda taniqli kinorejissyorlar, kino aktyorlar va aktrisalari, prodyuserlar bilan maxorat darslari, qo'shma loyixa dasturlari amalga oshiriladi. [3].

Tashkent Music Weyek va Tashkent Art Weyek tijoriy va ijodiy san'at amaliyotlarini birlashtiruvchi zamonaviy madaniy platforma sifatida shakllanmoqda. Unda zamonaviy muksiqaning xalqaro vakillari ijodkorlari Toshkent shaxriga jam bulishadi. Yurtimizning musika san'atini boy tarixini o'rganish va xalqaro maydonga olib chiqish masalalari ko'zlangan.

Samarqand - dunyo madaniyatida o'z o'rniga ega bo'lgan tarixiy shaxar.

Unda "Sharq Taronalari" xalqaro musiqiy festivalini o'tkazilishi O'zbekistonning eng katta madaniy, tarixiy merosni qaytargan bo'ladi. U Registon maydonida o'tkazilishi bilan o'rta asr me'morchiligi, an'anaviy musiqa va zamonaviy talqinlarni birlashtiruvchi noyob maydonga aylanadi. [4]. Unda yurtimiz ijodkorlari bilan bir qatorda xalqaro nufuzli ijodkorlar ishtiroki ta'minlanadi.

"Silk Road International Festival " Ipak yo'li sivilizasiyasiga xos hunarmandchilik, urf-odat va milliy sportlarning madaniy qayta tiklanishini ta'minlaydi. Festival milliy brendalarni xalqaro bozorga tanitishda muxim rol o'ynaydi.

Xiva- shaxri folklor va ajdodiy an'analar markazi. YUNESKO merosidagi "Ichon-qal'a" majmuasida o'tkaziladigan Bakhshi Festival dostonchilik, epik ijrochilik va xalq qo'shiqchiligi an'analarini saqlashda muhim rol o'ynaydi[5].

Shu bilan birga, Magic of Khorezm festivali Xorazm xalq raqslari, sopolchilik, milliy urf-odatlar va hunarmandchilikni ko'rgazmaviy shaklda qayta jonlantiradi.

Qoraqalpog'iston.- Mo'ynoq shaxrida o'tkaziladigan STIHIA Festival Oral dengizi fojiasini madaniy-ekologik masalalarni yechimini topayotgan muhim maydon hisoblanadi. Elektron musiqa, zamonaviy san'at va performanslar orqali ekologik ong

shakllanishiga xizmat qiladi [6] Festivalning hududda o'tkazilishi uni global ekologik madaniyat muhokamalariga xamjamiyat etiborini qaratadi muammolar tizginini bog'laydi.

Boysun- unda o'tkazilayotgan Boysun Bahori - YUNESKO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e'tirof etilgan folklor festivalidir. Ushbu festeval Boysun qishloqlari madaniyati, xalq raqslari, hunarmandchilik va etnografik an'analarning saqlanishiga xizmat qiladi. Bu festival Osiyodagi eng muhim etnografiya maydonlaridan biri sifatida qaralmoqda .

Buxoro, Qo'qon, Namangan, Qarshi-Termiz xududiy festivallar.

Buxoro - Silk & Spices Festival - Ipak yo'li merosiga bag'ishlangan ushbu festival hunarmandchilik, milliy oshxona va teatrlashtirilgan tomoshalar bilan boyitilgan bo'lib, Buxoro tarixi va madaniy muhitini namoyon etadi.

Qo'qon - Xalqaro hunarmandchilik festivali. Dunyo hunarmandlarini birlashtirgan ushbu forum milliy qo'l mehnati maktablarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Namangan - Gullar Festival. Gullar namoyishi va bog'dorchilik ko'rgazmalari bilan mashhur bo'lib, hududda landshaft madaniyati shakllanishiga hissa qo'shadi, seleksiyan rivojlantiradi.

Qarshi-Termiz -MILLIY O'YINLAR festivali. Milliy kurash, alamon-uloq va ot sporti kabi an'anaviy o'yinlar milliy sport merosini saqlashda, milliy ruxni kuchaytirishda, sog'lom turmush tarzinitarg'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistondagi festivallar jamiyatning madaniy dinamikasini, an'anaviy va zamonaviy madaniy jarayonlarning uyg'unlashuvini namoyon etadi. Ular milliy o'zligini saqlash, turizmni rivojlantirish, nomoddiy merosni muhofaza qilish va yangi ijodiy amaliyotlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu festivallar O'zbekiston madaniyatini xalqaro maydonda namoyish qilishda tahlil etilishi zarur bo'lgan muhim fenomenlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A. Culture and Festivals of Uzbekistan. Tashkent: UzCulture Press, 2020.
2. Ministry of Tourism of Uzbekistan. Annual Cultural Events Overview. Tashkent, 2023.
3. Rasulov, B. Silk Road Civilization: History and Traditions. Samarkand State University Press, 2021.
4. UNESCO. Intangible Cultural Heritage Reports. Paris: UNESCO Publishing, 2019-2023.
5. Xudoyorov, M. Modern Cultural Processes in Central Asia. Tashkent: Akademnashr, 2022.